

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA`LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo`lyozma huquqida
UDK:334.75:338.26

SAIDAKBAROVA ZIYODA DONIYOR QIZI

Biznes – jarayonlarni rivojlantirish va biznesni rejalashtirish uslubiyoti

70411302- “Biznesni boshqarish” mutahassisligi bo`yicha

Magistrlik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: Gafurov U.V.

TOSHKENT-2024

Magistrlik dissertatsiya ishi “ Biznes Boshqaruvi ” kafedrasida
dastlabki himoyadan o‘tgan

35 -sonli bayonnoma “ 25 ” aprel 2024 y.

Kafedra mudiri: Jafurov U.V Jafurov _____
imzo sana

Ilmiy rahbar: Jafurov U.V Jafurov _____
imzo sana

Talaba: Saidakbarova Z.D Saidakbarova _____
imzo sana

Dissertatsiya Magistratura bo‘limida 2024 yil “ _____ ”
№ _____ raqami bilan ro‘yxatga olinadi.

Bo‘lim boshlig‘i _____ F.I.O

ANNOTATSIYA

Biznes jarayonlarini boshqarish (BPM) - bu o'sishda davom etayotgan mavzu bo'lib, tashkilotlar tobora ortib borayotgan global muhitda raqobatbardosh ustunlikka erishish va uni saqlab qolishga intilayotgani uchun ahamiyatlidir. Tashkilotlarning BPM ya'ni Biznes jarayonlarini boshqarish yondashuvini qo'llash orqali ish faoliyatini yaxshilash haqidagi talaygina dalillariga qaramay, bu munosabatlarni tushuntiruvchi va tasdiqlovchi nazariyalar juda sanoqli. Ushbu dissertatsiya biznes-jarayonlarini takomillashtirish va uzoq muddatli muvaffaqiyatni rejalashtirish bilan bog'liq strategiya va yondashuvlarni har tomonlama tahlil qiladi. Tadqiqot biznes-jarayonlarni tashkiliy maqsad va vazifalar bilan muvofiqlashtirish muhimligini o'rganadi o'sish va barqarorlikni ta'minlash uchun samarali rejalashtirish metodologiyalarini kiritish muhimligini ta'kidlaydi. Nazariy asoslar va amaliy tadqiqotlar kombinatsiyasi orqali dissertatsiya biznes operatsiyalarini optimallashtirish, samaradorlikni oshirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha qimmatli fikrlarni taqdim etadi. Oxir oqibat, tadqiqot biznes rahbarlarini bugungi raqobatbardosh zamonda biznes jarayonlarni ishlab chiqish va strategik rejalashtirishda izchillik bilan harakat qilish uchun zarur bo'lgan bilim va vositalar bilan jihozlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *BPM, biznes jarayonlar, biznes rejalashtirish, Six Sigma, chegaralar nazariyasi, biznes jarayonlarni takomillashtirish*

Summary

The dissertation on "Business Process Development and Business Planning Methodology" topic provides a comprehensive analysis of the strategies and approaches involved in improving business processes and planning for long-term success. The study delves into the importance of aligning business processes with organizational goals and objectives, and highlights the significance of incorporating effective planning methodologies to drive growth and sustainability. Through a combination of theoretical frameworks and practical case studies, the dissertation offers valuable insights into optimizing business operations, enhancing efficiency, and fostering innovation. Ultimately, the research aims to equip business leaders with the knowledge and tools necessary to navigate the complexities of process development and strategic planning in today's competitive business landscape.

Key words: *BMP, business processes, business planning, Theory of constraints, Six Sigma, BPI*

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro`yhati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro`yhati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
KIRISH.....	9
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	10
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	11
Tadqiqotning ob`yekti va predmeti.....	12
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	13
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	13
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	15
1.1. Kirish.....	15
1.2. Mavzuga oid ilmiy nazariy qarashlar sharhi.....	16
1.3. Mavzuga oid mahalliy me`yoriy- huquqiy hujjatlar sharhi.....	30
1.4 Xulosa.....	31
II BOB. METODOLOGIYA.....	34
2.1. Tadqiqot dizayni.....	34
2.2. Ma`lumot to`plash jarayoni.....	35
2.3. Tahlil uchun qo`llanilgan usullar.....	36
2.4. Tadqiqotni o`tkazish uchun zarur sharoitlar.....	36
2.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muomolar va ularning yechimi....	39
2.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	41

KIRISH

Zamonaviy sharoitda korxonalar bozor iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanadi, buning asosiy sababi shundaki jamiyat uchun zarur bo'lgan mahsulotlar aynan shu darajada yaratiladi va zarur xizmatlar ko'rsatiladi. O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish nazariyasi hamda amaliyoti zamonaviy ishlab chiqarishga ortib borayotgan talablarga javob berish kerakligini aks ettiradi. Xususan: tovarlarning hayot aylanishining qisqarishi, mahsulotlarni yangilash zarurati tufayli yuqori moslashuvchanlikka ega bo'lish, texnologiyalarning muntazam ravishda murakkablashib borishi doimiy takomillashish zaruratini ko'rsatadi.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.

Hozirgi kundagi jahon iqtisodiyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, integratsiyalashish va globallashtirish jarayonlarining jadallashtirishi, texnologiyalardagi tinimsiz sifat o'zgarishlari, kompaniyalarning xalqaro miqyosda raqobatdoshligining oshishi, bozorlardagi sotuv hamda iste'molchilar talablarining keskin o'zgarishi har bir ishlab chiqaruvchi subyektni raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishga undaydi. Bu jarayonda ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish maqsadida, bozor talablarini o'rgangan holda eng maqbul qaror qabul qilish lozim. Korxonalar faoliyatini bozor talablariga mos ravishda o'zgartirish, boshqarishning yangicha hamda istiqbolli shakllarini yaratish va modernizatsiyalash, yangicha axborot usullari shuningdek zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yangi asrning asosiy talablaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish davrida O'zbekiston Respublikasida bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish va xususiy sektor tarmog'i rivojini jadallashtirish, soliq, bank va moliya tizimini takomillashtirish, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasini isloh etish bosh vazifalar hisoblanadi», - deb ta'kidlaganlar.